

## YOSHLARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI

Aymatova Aziza Baxtiyor qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqodchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10384034>

**Anontatsiya.** Mazkur maqolada jamiyatimizda yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr va mulohazalar hususida fikr yuritilgan. Kitobxonlikni rivojlanrtirish borasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, oliy ta'lif, saviya, sifat, qonun, kutubxona, oila, ota-on, farzand, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik.

## DEVELOPMENT OF LIBRARY CULTURE IN YOUTH IS THE NEED OF THE TIME

**Abstract.** This article discusses the current state of the reading culture, which is of incomparable importance in the ideological and ideological development of young people in our society, some problems in this regard, and thoughts and opinions regarding their elimination. Special attention is also paid to the reforms being carried out in our country regarding the development of literacy.

**Key words:** student, higher education, level, quality, law, library, family, parent, child, reading culture, spiritual need, family reading, literary work analysis, cultural discourse, text composition, literacy.

## РАЗВИТИЕ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается современное состояние культуры чтения, имеющей ни с чем не сравнимое значение в идеино-идеологическом развитии молодежи нашего общества, некоторые проблемы в этой связи, а также мысли и мнения по поводу их устранения. Особое внимание также уделено проводимым в нашей стране реформам в сфере развития грамотности.

**Ключевые слова:** студент, высшее образование, уровень, качество, право, библиотека, семья, родитель, ребенок, культура чтения, духовная потребность, семейное чтение, анализ литературного произведения, культурный дискурс, композиция текста, грамотность.

Olimlar, ziyorilar, mamlakat va millat kelajagi uchun chuqur qayg'urganlarni yaqin-yaqingacha bir narsa qiyab kelardi: nega yoshlarmiz, umuman, fuqarolarimiz o'rtasida kitobxonlik madaniyati pasayib ketdi, nima uchun yerdan ko'kka ko'taradigan, bizni barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot – kitobning qadri tushib ketmoqda?

Darhaqiqat, bu savollar barchamizni qiynar edi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yil 19-oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'yezdidagi saylovoldi ma'rurasida bildirilgan ayrim fikrlari xususida to'htalmoqchimiz.

"Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". ("XXI asr", 2016, 20 oktabr)

Gapning ochig'ini aytadigan bo'lsak, ushbu fikrlar mamlakatimizdagi barcha ziyorilar, millat kelajagi, uning ma'naviy barkamolligi uchun tashvishda bo'lgnalarning yurak-yuragidagi gap bo'ldi.

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqr falsafasi bor.

Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, keljakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflatundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiyan- Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan-Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqr o'rganishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir qulq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va keljakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar". (Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. -Toshkent, 1997. 39-bet)

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni

ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-Nur tarqatuvchi, u o‘zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma’naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchilar hisoblangan.

Shu o‘rinda mazkur Prezident farmoyishidagi bir holatga e’tibor berish lozim. Bu-hududlarda yozuvchi, shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ‘ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kitobxonachi va targ‘ibotchilar orasida turli tanlovlardan o‘tkazish masalasidir.

Darhaqiqat, bu o‘ta zarur masala. O‘z shaxsiy kuzatuvlarim natijasida shuni aytishim mukinki, bugungi kunda oilaviy kutubxonasi bor yuzlab, minglab vatandoshlarimiz mavjud. Ularning kutubxonalarida shunday noyob, nodir kitoblar borki, ular juda kamyob va yagona nushada. Biz, “Eng yaxshi kitobxon oila” tanlovini o‘tkazish orqali o‘sha nodir asarlar nafaqat mazkur oilaning, shuningdek, butun jamiyatning ma’naviy mulkiga aylanishini, ulardan qo‘ni-qo‘shnilar, soha mutaxassislari samarali foydalanishlarini istardik. Oilaviy kutubxona faqatgina uyning bezagi, uy egasining “ziyoliligi”ni bildiruvchi belgi bo‘lishini istamas edik. Shu ma’noda, oilaviy kutubxona tanlovida u yoki bu kitobning chiroyliligi, sahifalarning buklanmaganligiga emas, aksincha, uning qay darajada ko‘p o‘qilganligini anglatuvchi ko‘rsatkichlariga e’tibor berish lozimligini ko‘rgimiz keladi.

Endi bugungi kitoblar, ayniqsa badiiy asarlar hususida ayrim fikrlarni bayon etsak: ma’lumki, kitob umuman, badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini ma’naviy barkamolligini ta’minlashi lozim. Bunday asarlar, darhaqiqat, yaratilmoqda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ularni o‘qishdan charchamayapti. Ammo, buguni asarlarning barchasiga ham shunday baho qo‘yish mumkin emas. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilayotgan bo‘lsada, ammo ular “teskari samara” bermoqda. Turli salbiy ko‘rinishlar, zo‘ravonlik, ur-yiqit, odamlarda “olomon fikrlash” darajasini ko‘tarishga urinish, fahsh, illatlarni targ‘ib etish kabi holatlar ba’zi asarlarda avj olayotganing guvohi bo‘lmoqdamiz.

Mutafakkir-allomalarimiz johillikning birinchi belgisi-go‘zallikni ko‘rmaslikdir, deydilar. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohatlar sodir bo‘lmoqda, odamlarimiz tafakkur tarzi o‘zgarmoqda. Ana shu ijobiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga yetkazish juda to‘g‘ri bo‘lar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg‘u bergen. Ho‘s, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat: o‘zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish; kitob ustida ishslash malakasini obdon o‘rganib olish va unga chuqr amal qila bilish; kitobni mustaqil o‘qiy bilish; o‘qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o‘qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko‘chirib olish, notanish bo‘lgan so‘zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do‘stingga munosabatda bo‘lganday e’tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o‘ylab, diqqat-e’tibor bilan o‘qish malakasiga ega bo‘lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o‘rganish; o‘qigan kitobni

do'stlar bilan o'rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsija qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal'asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlash.

Nazarimizda, mazkur farmoyish O'zbekiston ijtimoiy-madaniy muhitimi yanada barqarorlashtirishga, yoshlarimizda kitobxonlik darajasini oshirishga, pirovard natijada xalqimiz turmush tarzini yanada farovon qilishga xizmat qiladi.

Kitob o'qish barchamizning ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizdagi ayrim vatandoshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, kambag'allashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning o'zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgani haqida ma'lumot bergenlar.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26000dan ortiq ekan. Ana shuncha milliy boyligimizni avaylab-asrash uchun ham kitob o'qish lozim. Darhaqiqat, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi.

Shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

## REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2017. B.48.
2. Zbarskiy I.S. Vneklassnaya rabota po literature(4-8): posobie dlya uchitelya. - M.: Prosveshenie, 2010. – 208 s.
3. Qodirov P. Til va el.-Toshkent, 2010-127 bet.
4. Tarix fanlari doktori, Professor., Abduhalil Mavru洛f fikrlari.
5. Maxsudova, S. (2023). *Priority directions for the formation of the effectiveness of the use of foreign experience in primary grades.*
6. Maxsudova, S., & Omonqulova, F. (2023). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTIDORINI OSHIRISH UCHUN HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 69-73.
7. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR XORIJY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Models and methods in modern science*, 2(5), 50-53.
8. Maxsudova, S. (2023). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini erta aniqlash va rivojlantirish uchun "Zukko bolajon" kurslari.*
9. Maxsudova, S. (2023). *BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA "ZUKKO BOLAJOON" KURSLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI.*